

Yerosti quvurlarini seysmik mustahkamligini hisoblash: yangi dasturiy yechim!

Bilasizmi? Seysmik faol hududlarda yer osti quvurlarining barqarorligi va seysmik mustahkamligi atrofidagi grunt xususiyatlariga bog'liq!

O'zR FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti olimlari tomonidan taklif etilayotgan dasturiy ta'minot to'plami turli xil chegaraviy shartlar va zilzila ta'sirida yer osti quvurlarining seysmik mustahkamligini aniq hisoblash imkonini beradi.



Muhim jihatlari:

Alovida joylashgan quvurlar uchun;

Murakkab tugunli quvur tizimlari uchun;

Massalar, geometriya, materiallar, hamda grunt xususiyatlari hisobga olingan holda hisoblash ishlari amalga oshiriladi.

Natijalar avtomatik ravishda grafik va jadval ko'rinishida taqdim etiladi — tahlil uchun juda qulay.

Dastur suv ta'minoti, kanalizatsiya, neft va gaz quvurlari kabi infratuzilma obyektlarini hisoblash va loyihalashda foydalanish uchun tavsiya etiladi.